

Uzbekiston ayollari masalasi - BMT minbaridan o'zbek tilida yangradi

2020-yil 1-oktyabr kuni BMTning Nyu-Yorkdagi qarorgohida Xotin-qizlar holati bo'yicha to'rtinchi Butunjahon konferentsiyasining 25 yilligiga bag'ishlangan (Pekin +25) global sammit bo'lib o'tdi.

Yuqori darajadagi videokonferentsiyada BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Bosh assambleyaning 75-sessiyasi raisi Folkan Bozkir, "BMT-Xotin-qizlar" tuzilmasi rahbari Fumzile Mlambo-Ngcuka, jahonning 173 dan ortiq mamlakati rahbarlari va vakillari, Tashkilotning ixtisoslashgan muassasalari, jamg'armalari va dasturlari ekspertlari, shuningdek, nodavlat xotin-qizlar tashkilotlari va fuqarolik jamiyati yetakchilari ishtirok etdi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi, Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi raisi Tanzila Narbayeva O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi nomidan ishtirok etdi. Senat rahbari o'zbek tilida nutq so'zladi. Uning nutqi BMTning barcha rasmiy tillariga tarjima qilindi.

Forumning asosiy maqsadi mamlakatlar tomonidan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi (1995 yil) qoidalarining bajarilishini, gender tenglik, Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish doirasida xotin-qizlar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish sohasida erishilgan yutuqlarni ko'rib chiqishdan iborat bo'ldi.

Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi 1995 yil 4-15 sentyabr kunlari Pekin shahrida (XXR) bo'lib o'tgan Xotin-qizlar holati bo'yicha to'rtinchi Butunjahon konferentsiyasida qabul qilingan edi. Ta'kidlanganidek, Pekin Harakatlar platformasi xalqaro hujjat bo'lib, unda davlatlar tomonidan xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va targ'ib qilish bo'yicha majburiyatlar shakllantirilgan. Bugun Pekin Harakatlar platformasi gender tenglikka erishishga va xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan siyosatning oltin standarti hisoblanadi. Unda qat'iy choralar ko'rish zarur bo'lgan 12 ta muhim yo'nalish belgilangan.

Hujjatdagi strategik maqsadlar muhim muammoli sohalar asosida qo'yilgan bo'lib, ularga erishish uchun ko'rilishi lozim bo'lgan aniq chora-tadbirlar esa tenglik, rivojlanish va tinchlik masalalariga taalluqli. Harakatlar platformasi barcha xotin-qizlarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan. Mazkur hujjat jahon ahlining e'tiborini erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tenglikni ta'minlash zarur bo'lgan ko'plab sohalarga qaratdi.



Shu nuqtai nazardan, global sammit butun dunyo hamjamiyatining hayotida yorqin va muhim voqea bo'ldi. Unda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarining barcha ijobiy tomonlari muhokama qilindi. Ishtirokchilar so'nggi chorak asrda dunyo bo'ylab xotin-qizlar ahvolini yaxshilash borasida erishilgan yutuqlarni batafsil ko'rib chiqdilar. Xususan, qizlarning ta'lim olishini ta'minlash, xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va siyosiy faolligini, shuningdek kamsitadigan qonunlarni bekor qilishga qaratilgan islohotlar olib borishdagi faolligini kuchaytirish sohasidagi yutuqlar ko'rib chiqildi.

Forumning ochilish marosimida nutq soʻzlagan BMT Bosh kotibi A.Guterrish taʼkidlaganidek, deklaratsiya qabul qilinganidan keyin oʻtgan 25 yil davomida davlatlar tomonidan juda katta ishlar amalga oshirildi, buning natijasida butun dunyoda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqei sezilarli darajada yuksaldi.

Keng miqyosli forum davomida mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qoidalarini amalga oshirish, xotin-qizlarni ragʻbatlantirish va huquq hamda va imkoniyatlarini kengaytirish boʻyicha oʻz hukumatlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida maʼlumot berdi.

Majlisda soʻzga chiqqan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi Tanzila Narbayeva ishtirokchilarni xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, gender tenglikni taʼminlash va ularning davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlarida belgilangan huquq va imkoniyatlarini, ayniqsa pandemiya davrida kengaytirish boʻyicha mamlakatimizda soʻnggi yillarda qabul qilingan amaliy chora-tadbirlar va islohotlar bilan tanishtirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Senati Raisining nutqi tadbir ishtirokchilarida alohida qiziqish uygʻotdi. Ular respublikada xotin-qizlar maqomini oshirish, ularning davlat siyosatini amalga oshirishdagi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi va uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ishtirokini kuchaytirish, shuningdek, qarorlar qabul qilish jarayoniga ularni jalb etish boʻyicha respublikada koʻrilayotgan chora-tadbirlarni qoʻllab-quvvatlab, ularga yuqori baho berdilar.

Manba